



Sug'urta xizmatlari

Yangilangan sana: Chr, Iyun, 13, 2018



[1]

Xalq banki ijtimoiy vazifalarning hal etilishida Hukumatning moliyaviy agenti vazifalarini bajaruvchi ishonchli va barqaror bankdir. Biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining mulkiy va shaxsiy manfaatlarini majmuy sug'urta himoya qilishni ta'minlash, mikrosug'urtalash mahsulotlarini ishlab chiqish va aholining keng qatlamlariga faol rivojlantirib olg'a surish uchun «Xalq sug'urta» sug'urta kompaniyasini tuzdik.

«Xalq sug'urta» kompaniyasi O'zbekistonning sug'urta bozorida o'z faoliyatini 2011 yil may oyida boshlagan. Ustav fondi 1,5 mln. yevro miqdorida shakllantirilgan kompaniya Xalq bankining 100% shu'ba korxonasi hisoblanadi. Germaniya jamg'arma kassalari Fondi va O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki bilan yaqin hamkorlik kompaniyaga qisqa muddat ichida mikrosug'urtalash xizmatlarini boshlash, sug'urta xizmatlarini tarqatish tarkibi va yo'llarini belgilab olish imkonini berdi.

Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash:

- Tashkilot (kompaniya) xodimlari
- Bank xodimlari;

Javobgarlikni sug'urtalash:

- Aksiyadorlik jamiyatining investorlar oldida;
- Bojxona brokerlari;
- Notariuslar;
- Sud boshqaruvchilari;
- Advokatlar;
- Rieltorlar;
- Baholovchilar;
- Banklarni majmuy sug'urtalash;
- Moliyaviy xavf-xatarlarni sug'urtalash;
- Yo'lda bo'lgan mulklarni (yuklarni) sug'urtalash;
- Majmuy sug'urtalash (ipoteka);
- Garovga beriladigan mulkni sug'urtalash;
- Transport vositalarini majmuy sug'urtalash;
- Garovga beriladigan transport vositalarini sug'urtalash;
- Temir yo'lda harakatlanuvchi sostavni sug'urtalash;
- G'alla ekinlarini (bug'doy, paxta) hosil bermaslikdan sug'urtalash.

[«XalqSug'urta» kompaniyasining rasmiy sayti](#) [1]

[1] <http://www.xalqsugurta.uz/>